



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

XORIY MAMLAKATLARDA TADBIRKORLIKNING INNOVATSION RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISH TAJRIBALARI

Yusupova Dildora

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

INFO:

Qabul qilindi: 15.02.2022
Ko'rib chiqildi: 15.02.2022
Chop etildi: 16.02.2022

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, innovatsiya, tadbirkorlik

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, kichik biznesni rivojlantirishda horijiy mamalakatlar tajribasi va ulardan oqilona foydalanish masalalari tadqiq qilingan. Muallif tomonidan O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada keng ko'lamda rivojlanish innovatsion raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Аннотация. В данном исследовании рассматривается роль малого бизнеса и частного предпринимательства в национальной экономике, опыт зарубежных стран в развитии малого бизнеса и их рациональное использование. Автор предлагает предложения и рекомендации по вопросам дальнейшего развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, повышения инновационной конкурентоспособности.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, инновации,

предпринимательство.

Annotation. This research examines the role of small business and private entrepreneurship in the national economy, the experience of foreign countries in the development of small business and their rational use. The author offers suggestions and recommendations on the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan on a larger scale, increasing innovative competitiveness.

Keywords: small business and private entrepreneurship, innovation, entrepreneurship.

O'zbekistonda taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iboratdir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, birinchi navbatda, xususiy sektorning mavqeini yanada oshirishni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy sohada ijobiy natijalarga erishish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanib, xususiy mulk va kichik biznesning o'rnini va ahamiyati tobora mustahkamlanmoqda.

Ko'pgina Yevropa Ittifoqi davlatlarida yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 67 foizi va yangi ish o'rinlarining 70 foizi kichik biznes orqali yaratiladi. Kichik biznes ahamiyatining yana bir eng asosiy xususiyati shuki, u ko'plab kishilarni raqobat o'yiniga jalb etib, kishilarning o'z biznesida muvaffaqiyatini ta'minlashga intilishi yo'lida aqliy yaratuvchanlik va tadbirkorlik qobiliyatlarini oshiradi. Zero, XXI asr raqobatbardoshligi inson aqli va tafakkuri mahsuli bo'lgan innovatsiyalar bilan o'lchanadi; kichik biznes esa innovatsiyalar dunyoga kelishining muhim zanjiri bo'lib sanalmoqda.

E'tiborli jihati kichik biznes kelajakning yirik kompaniyalaridir. Demakki, O'zbekistonda kichik biznesning keng rivoj topishi zarur haqiqat bo'lib, bu yo'lida ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish mamlakatimizda kichik biznes rivojida muhim omil hisoblanadi.

Ayrim xorijiy iqtisodchilarning fikriga ko'ra, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Meksika, Chili, Braziliya kabi mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning davlat dasturlari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilyapti¹. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan tartibga solinishiga ehtiyoj sezadi.

Kichik va xususiy biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda asosan Buyuk Britaniyaning savdo va sanoat vazirligi faollik ko'rsatadi. Bu vazirlik tarkibida «Kichik biznes uchun xizmat ko'rsatish» (The Small Business Service – keyinchalik SBS) agentligi tashkil etilgan bo'lib, u kichik biznes sub'ektlari faoliyatini barcha milliy infratuzilma ko'magi ostida muvofiqlashtiradi. Kichik biznes sohasi eng yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Yaponiya ushbu masalada ilg'or tajribaga ega. Ushbu mamlakatda jami korxonalarining 99,7 foizi, jami band aholining 70 foizi, jami ishlab chiqarilgan qo'shimcha qiymatli mahsulotlarning 50 foizdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiyada kichik biznes umumiy ishchi kuchining 80 foizini qamrab oladi. Ayniqsa, «Toyota», «Honda»

¹ Маширова Т.Н., Сабенова Б.Н., Сихымбекова А.М. Основные направления развития малого и среднего бизнеса: зарубежный опыт. // Ж. Экономика и финансы. №3. 2012. С. 31.

va «Sony» kabi yirik korporatsiyalari ham o'z vaqtida kichik korxonalar sifatida ish boshlagan. Yaponiyada kichik biznes sohasini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, dastlab tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgan. Kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash siyosati Kichik va o'rta korxonalar agentligi (Small and Medium Enterprise Agency) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Kichik biznes sohasiga moliyaviy jihatdan ko'maklashish maqsadida Yaponiya byudjetidan yirik miqdorda mablag' ajratiladi. Jumladan, kichik biznes sub'ektlarini retsessiya va tabiiy ofatlarlardan himoya qilish hamda innovatsion menejment va ilmiy-tadqiqot sohasini rivojlantirishi uchun moliyaviy yordam beradi. Shuningdek, yangi tadbirkorlikni boshlash va ular faoliyatini kengaytirish uchun ham moliyaviy oqimlarni yo'naltiradi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida Xitoy davlati so'nggi yigirma yillikda o'zining tezkor taraqqiyoti bilan ko'plarni hayratga solayotganligini birgina, 2010 yilda YaMM miqdori bo'yicha Yaponiyani quvib o'tib, AQShdan keyingi dunyoning ikkinchi eng kuchli davlatiga aylanganligidan ham ko'rish mumkin. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznesning o'rni ham alohida e'tiborga molik, albatta. Kichik biznesning keng ko'lamlı rivoji esa bizningcha, Xitoy davlatining quyidagi o'ziga xos iqtisodiy siyosatida ko'rinadi.

Janubiy Sharkiy Osiyo tajribasidan ma'lumki, ular kichik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va venchur biznesini qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumat mahsus fondlar tashkil qilgan, bundan tashkari esa kichik va xususiy korxonalar qarzdorligini bartaraf qilish maqsadida turli xil kreditlar ajratadi hamda an'anaviy sohalarni modernizatsiya qilish uchun investitsiyalarni rag'batlantirib boradi.

Kichik biznes rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Singapurda 130 mingtaga yaqin kichik biznes sub'ektlari faoliyat olib boradi. Bu mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning 92,0 % ini tashkil etadi. Ushbu sektor ulushiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot qo'shimcha qiymatining 35,0 % i va Singapur yalpi milliy mahsulotining 25,0 % i to'g'ri keladi. Mamlakatda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun «Spring» agentligi tashkil etilgan. Singapurda yagona hisoblangan mazkur agentlik tadbirkorlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan 100 taga yaqin dasturni amalga oshiradi. Davlat kichik biznes sub'ektlarida mehnat qilayotgan xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish uchun xarajatlarning 90,0 % ini qoplaydi. Buning uchun mamlakatda davlat, shuningdek, xususiy ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Kichik korxonalar hatto o'zlari uchun kerakli chet ellik mutaxassisni davlat hisobidan firmalariga taklif etish huquqiga ega.

Kichik biznes muammolari ko'pincha tadbirkorlarni bozor sharoitida ishlashga yetarli bilim va malakaga ega emasligi bilan bog'liqdir. Xorijiy tajribadan foydalanib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lgan kadrlar salohiyatini sifat jihatdan oshirish, zamonaviy informatsion texnologiyalar yordamida kadrlar kvalifikatsiyasini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish, kadrlarni «ta'lim ta'siri» texnologiyasi bo'yicha qayta tayyorlash maqsadida ta'lim muassasi, biznes, infratuzilmaviy tashkilotlarning hamkorlik tizimini rivojlantirish bizningcha bu soha rivoji uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham tadbirkorlikni, xususan kichik korxonalar rivojlanishida venchur fondlarini shakllantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri deb hisoblaymiz.

Bizningcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xom ashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, mahsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqish va amalda qo'llashni, ko'rsatilayotgan ish va

xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etishni taqozo etadi.

Ikkinchidan kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va vositalarni yanada takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, chet mamlakatlarda marketing ishlarini olib borishning yangi bosqichlariga o'tish hamda qayta tiklanish xususiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar eksportini kengroq yo'lga qo'yish, soha vakillarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish istiqbolda kichik biznesni rag'batlantiruvchi va uning eksport salohiyatini orttiruvchi omillar hisoblanadi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashining tashkiliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, tadbirkorlarga amaliy maslahatlar beruvchi kuchli konsalting tizimini yaratish, turli moliyaviy tashkilotlar, kredit jamiyatlarini barpo etish orqali kichik va xususiy biznes hamda tadbirkorlikni mablag' bilan ta'minlovchi kuchli moliyaviy tizimni barpo qilish, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada keng ko'lamda rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Slovar biznes terminov,1996
2. Bolshoy ekonomicheskiy slovar,2010
3. Cambridge english dictionary.2011
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kasanachilik to'g'risida"gi nizomi. 2006 yil 11 yanvar.
5. I.Maxkamov, O.Kozokov, X.Xurramova "Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish" Monografiya.2013
6. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni. 2012 yil. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 yil.